

xb

Xalqaro imtihon tizimlari bo'yicha yuqori ball (daraja)
qayd etgan va imtihon xarajatlari qoplab berilgan yoshlar:

4124
nafar

7 579 953 358
so'm ajratilgan

YOSHLAR OVOZI

**BIZ – KELAJAK
BUNYODKORIMIZ!**

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

16 (16469)
2022-yil, 30-mart
chorshanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

Mahallada yoshlar yetakchisi
4-bet

"Yashil" reytingga
chiqamiz

5 tashabbus olimpiadasi
6-bet

"Zakovat"
intellektual o'yini

Tabiat va biz
7-bet

"Qizil kitob"
"semirib" ketyapti



Foto: Vitallyi Jufiro

TOSHKENTDAGI MARAFON

2-betga

qarang

SOG'LOM TURMUSH TARZI TARAFDORLARINI BIRLASHTIRDI

MUHIM VAZIFALAR

belgilab olindi

Vazirlar Mahkamasining navbatdagi Rayosat majlisida Yoshlar ishlari agentligi va Surxondaryo viloyati hokimligi rahbarlarining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni talablariga muvofiq yoshlarga oid davlat siyosatining, xususan, iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish bo'yicha natijadorligini oshirishga qaratilgan ishlari hisoboti eshitildi.

Majlisda Surxondaryo viloyati hokimligi rahbariyati yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, bu yo'nalishdagi ishlar samaradorligini yanada oshirish choralarini ko'rilayotganini qayd etdi.

Xususan, viloyatda 18-30 yoshdagi 611 ming 241 nafar yosh to'g'risida ma'lumotlar bazasi shakllantirilgan. Bugunga qadar xatlov va o'rganishlar natijasida "Yoshlar daftari"ga 47 ming 707 nafar yosh kiritilgan.

Kasb-hunar o'rgatish, imtiyozli kreditlar, yer maydonlari va subsidiyalar ajratish hamda yoshlarni ijtimoiy-moddiy tomondan qo'llab-quvvatlash tizimli tashkil etilgani bois 46 ming 859 nafar yosh daftardan chiqarilgani to'g'risidagi masalalar muhokama etildi.

848 nafar imkoniyati cheklangan va tibbiy yordamga muhtoj yoshlar doimiy nazoratga olingan. Aholi bandligiga ko'maklashish markazlariga murojaat qilgan 613 nafar yigit-qizlar ish o'rni bilan ta'minlangan.

Majlisda yoshlarni tadbirkorlikka o'rgatish, imtiyoz va imkoniyatlar yaratish borasida ham so'z bordi.

Surxondaryo viloyatida bugungi kunda 16 ming 120 nafar yosh tadbirkor faoliyat yuritadi. Ularning 4 ming 250 nafari yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, 11 ming 870 tasi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyekti sanaladi.

Shuningdek, Rayosat majlisida Surxondaryo viloyati tuman (shahar)lari hokimliklari tomonidan yoshlar masalalarini tizimli hal etishga, ayniqsa, ularning bandligini ta'minlashga yetarlicha o'tibor qaratilmayotganligi tanqidiy ko'rib chiqildi.

Tahlillarga ko'ra, Sho'rchi tumanida (B. Xudayberganov) 1 606 nafar, Angor tumanida (Sh. Abdullayev) 818 nafar, Termiz shahrida (I. Xudayberdiyev) 824 nafar, Uzun tumanida (B. Tursunov) 704 nafar yigit-qizning bandligi ta'minlanmagani qayd etildi.

Majlisda Surxondaryo viloyati hokimi T. Bobolov "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni ijrosini tuman (shahar)larda to'liq va sifatli amalga oshirishda shaxsan mas'ul ekani qayd etildi.

Rayosat majlisida tegishli vazirlik va idoralar, Surxondaryo viloyati hokimligi rahbariyati tomonidan yoshlar bilan ishlash va ularning muammolarini hal qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari belgilandi.


"Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun talablarini to'liq o'zlashtirish maqsadida joylardagi mas'ullar uchun qisqa muddatli o'quv soatlarini tashkil etish, mahallalarda yoshlar balansini yaratish orqali hududlarni "qizil", "sariq" va "yashil" toifalarga ajratish hamda iqtisodiy o'sish nuqtalarini aniqlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida Xalq deputatlari tuman (shahar) kengashlariga har oyda hisobot berib borish vazifalari yuklatildi.

Sektorlar ish samaradorligini oshirish, ularning faoliyatini har chorakda muntazam monitoring qilib borish maqsadida 4 ta mintaqaviy hududlar bo'yicha ishchi guruhlarni shakllantirib, ularning faoliyatini faqat mahallalardagi muammolarni aniqlash va bartaraf etish bilan bog'liq taklif va loyihalarni ishlab chiqishga qaratilishi ta'kidlab o'tildi.

Qayd qilingan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha barcha vazirlik va idoralar, xo'jalik birlashmalari rahbarlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga vazifalar belgilab berildi.

Majlis yakunlari bo'yicha Vazirlar Mahkamasi Rayosatning tegishli qarori qabul qilindi.

Uchqun XUDOYOROV,
Vazirlar Mahkamasi bosh mutaxassisi




TOSHKENTDA

MARAFON

Poytaxtimizda "Navro'z" IV hamda SHHT doirasida Toshkent xalqaro yarimmarafoni bo'lib o'tdi.

Yarimmarafon 3 km va 21 km, "Navro'z" IV marafoni 42 km 195 m va 10 km masofalarda o'tkazildi.

Marafonda erkaklar va ayollar o'rtasida 1-3-o'rin sohiblari mos ravishda 30 million, 20 million, 10 million so'mlik pul mukofotlari bilan taqdirlandi. 10 km masofada erkaklar va ayollar o'rtasida 1-3-o'rin egalari 3 million, 2 million, 1 million so'm pul va medallar bilan mukofotlandi.



HAYDOVCHILIK KURSLARIDA O'QISH UCHUN SUBSIDIYA AJRATILADI

1 Avtotransport vositalari haydovchilarini tayyorlash o'quv kursi xarajatlarini qoplash uchun subsidiya kimlarga va qancha miqdorda ajratiladi?

"Mehribonlik uylari", Bolalar shaharchalari, oilaviy bolalar uylarida tarbiyalangan hamda "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarga haydovchilik kurslarida o'qish xarajatlarini kompensatsiya qilish uchun BHMning 4 baravarigacha miqdorda yordam ko'rsatiladi.




2

IMTIYOZ
18 yoshdan oshgan - 30 yoshdan katta bo'lmagan yoshlarga beriladi.

Subsidiya ajratiladigan yoshlarni aniqlashda mahalladagi yoshlar yetakchisining o'rni

Yetakchi yoshlarning ijtimoiy ahvolini o'rgangan holda ularga tavsiya beradi.



3

Ijtimoiy himoyaga muhtoj bir oiladagi ikki yoki undan ortiq yosh bu yordamdan foydalana oladimi?

Ha, bu borada hech qanday to'siq yo'q.

4

Pul qanday ko'rinishda to'lab beriladi?

Mablag' shartnomaga muvofiq avtotransport vositalari haydovchilarini tayyorlash o'quv markazi hisob raqamiga o'tkazib beriladi.

5

Ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarga haydovchilik o'quv kursi xarajatlarini qoplash uchun subsidiya ajratish bosqichlari

SAMARQAND TAJRIBASI:




Respublika ishchi guruhi ikkinchi kun Ishtixon tumanida bo'lib, Ishtixon va Kattaqo'rg'on tumani yoshlar yetakchilari va hokim yordamchilari bilan suhbat olib bordi. Sektor rahbarlari faoliyatini baholash kun mavzusiga aylandi. Sektor rahbarlarining o'z faoliyatida ko'rsatgan ish samaradorligi va unumdorligi hamda unga beriladigan baho yoshlar yetakchisi bilan qanday ishlashiga bog'liqligi bilan belgilanadigan bo'ldi.


Ochiq muloqotda uyushmagan yoshlar bilan ishlashdagi yutuq va kamchiliklar aytib o'tildi va ularga to'g'ri yo'nalishni tanlash bo'yicha yo'l-yo'riqlar ko'rsatildi. Yoshlar dardini tinglagan va unga ko'mak bergan yetakchining nufuzini oshirish uchun barcha amaliy yordam ko'rsatilishi ta'kidlandi.

Hududlardagi yoshlar yetakchilari bilan ishlash, faoliyatini nazorat qilish, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatish, maslahat hamda tushunchalar berish maqsadida yaratilgan tizim bo'yicha ish olib borayotgan respublika ishchi guruhi o'z yo'nalishi, hududlarda uchrashuvlarni davom ettirmoqda. Yoshlar yetakchilari faoliyati to'g'ri yo'lga qo'yilgani, ular amalga oshirayotgan ishlar ko'zdan kechirilmoqda. Ishchi guruhning navbatdagi yo'nalishi Samarqand viloyatiga qaratildi.

Dastlabki kun ishchi guruh viloyatning Payariq, Jomboy, Bulung'ur hamda Qo'shrabot tumanlari yoshlar yetakchilari va hokim yordamchilari uchun ochiq muloqot o'tkazdi. Uchrashuv samimiy ruhda o'tib, unda viloyat hokimi Erkinjon Turdimov ishtirok etdi. Yoshlar yetakchilarining taklif va tashabbuslari tinglandi. Har bir yetakchining takliflari inobatga olinib, ular uchun barcha sharoitlar yaratib berilishi ta'kidlandi. Jumladan, yoshlar istagidan kelib chiqib, Bulung'ur tumani Oqtepa mahallasi yoshlari uchun tashkil etiladigan yetakchining tadbirida Madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov ishtirok etishi aytiladi.



YETAKCHILARGA MAXSUS GUVOHNOMA BERILADI



**HAR BIR YETAKCHINING
TAKLIFLARI INOBATGA OLINIB,
ULAR UCHUN BARCHA
SHAROITLAR YARATIB BERILISHI
TA'KIDLANDI.**

lari bilan ochiq muloqot tashkil etdi. Uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi "Mahallalarda

yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-92-qarori mazmun-mohiyati tushuntirildi, qaror ijrosini ta'minlash maqsadida hududda amalga oshirilayotgan ishlar muhokama etildi.

Ishchi guruhning galdagi uchrashuvi Oqdaryo, Tayloq, Pastdarg'om hamda Samarqand tumani yoshlar yetakchilari bilan bo'ldi. Yetakchilar o'zlarining amalga oshirgan ishlari hamda mahallasidagi shart-sharoitlar to'g'risida gapirdi. Yoshlar muammolarini o'rganish jarayonida o'zlari uchun maxsus guvohnoma joriy etish taklifini bildirishdi. Ishchi guruh ular uchun maxsus guvohnoma joriy etilishi va bu Samarqand tajribasi bo'lishini ta'kidladi.

Tadbirlarda yoshlar yetakchilarining fikrlari ijobiy ekanining guvohi bo'ldik. Ular amalga oshirilayotgan ishlardan mamnun ekanliklarini ta'kidlashdi.

I BOSQICH

Yoshlar "Yoshlar daftari" Vasiylik Kengashiga avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash kurslarida o'qish xarajatining bir qismini kompensatsiya qilish haqida yozma murojaat qiladi.

II BOSQICH

Vasiylik Kengashi murojaatni o'rganib, o'qish xarajatining bir qismini kompensatsiya qiladi. "Yoshlar daftari" jamg'armasi hisob raqamida bu yo'nalishdagi xarajatlarni uchun mablag' yetarli bo'lmasa, Vasiylik Kengashi uch ish kunida arizachining murojaati va tegishli hujjatlarni ilova qilgan holda ariza beruvchiga o'qish xarajatining bir qismini qoplash haqida Yoshlar ishlari agentligi hududiy boshqarmasiga so'rov yuboradi.

III BOSQICH

So'rov xati bo'yicha taqdim etilgan ma'lumotlar va hujjatlar nusxalari belgilangan talablarga muvofiq bo'lsa, Yoshlar ishlari agentligi hududiy boshqarmasi uch ish kunida Yoshlar ishlari agentligi markaziy apparatiga o'qish xarajatining bir qismini qoplab berish to'g'risida talabnoma yuboradi.

IV BOSQICH

Yoshlar ishlari agentligi markaziy apparati tomonidan Jamg'armaning daromad va xarajatlari hisob-kitobidan kelib chiqib, besh ish kunida o'qish xarajatining bir qismini to'lash bo'yicha to'lov grafigi shakllantiriladi.

Shuningdek, besh ish kunida agentlikning hududiy boshqarmasiga to'lov grafigi, ariza beruvchiga o'qish xarajatining bir qismini to'lab berish muddati haqida SMS xabar yuboriladi.

V BOSQICH

Uch ish kunida Yoshlar ishlari agentligi hududiy boshqarmasi ariza beruvchiga o'qish xarajatining qolgan qismi u tomonidan to'lanib, to'lovni tasdiqlovchi hujjat taqdim etilganda xarajatning bir qismi qoplab berilishi haqida SMS xabar yuboradi.

VI BOSQICH

Ariza beruvchi o'qish xarajatining o'zi to'lashi lozim bo'lgan qismini to'laganini tasdiqlovchi ma'lumotni Yoshlar ishlari agentligi hududiy boshqarmasiga SMS xabar yuborilgan sanadan boshlab 30 kalendar kuni davomida taqdim etadi.

VII BOSQICH

Yoshlar ishlari agentligi hududiy boshqarmasi o'qish xarajatining bir qismini uch ish kunida ta'lim tashkilotining bankdagi hisob raqamiga o'tkazadi va bu haqda arizachiga SMS xabar, Vasiylik Kengashiga uch ish kunida xabarnoma yuboradi.

“YASHIL” REYTINGGA CHIQAMIZ

Davlatimiz rahbari joriy yil 10-fevral kuni Samarqand viloyatiga tashrifi chog'ida biz, yoshlar vakillari bilan suhbatlashib, biz orqali barcha yoshlarning orzu-istaklari, qiziqishlari va rejalarini tingladi va "Sizlar bizning oltin xazina kadrlerimiz bo'lasizlar. Kelajakda ish samarasiga qarab, sizlarni to'g'ridan-to'g'ri rahbarlikka ham tayinlaymiz", deya bizga katta kuch, ishonch berdi.

Faoliyatimning ilk kunlaridanoq mahalla yoshlari ro'yxatini shakllantirish, ular bilan yaqindan tanishish va muammolarini o'rganish maqsadida xatlov o'tkazdim. 30 yoshgacha bo'lgan 2401 nafar yosh orasida 35 nafari ishga muhtajligi aniqlandi. Xatlov natijalariga ko'ra shakllantirilgan "Yoshlar balansida" aniqlangan yoshlarning muammolari yuzasidan tegishli tashkilotlar va hokim yordamchisi bilan hamkorlikni yo'lga qo'ydim.

Fermerlik va qishloq xo'jaligi sohasida qiziqishi bor yoshlarning 5 nafariga auksion orqali yer olib, dehqonchilik bilan shug'ullanishi uchun sharoit yaratib berdik. Tikuvchilikni yaxshi biladigan, ammo tikuv mashinasi olishga imkon topmayotgan bitta qizga subsidiya



Farrux ABDULLAYEV,
Samarqand viloyati Jomboy tumanidagi
"Dehqonobod" mahallasi yoshlar yetakchisi

asosida tikuv mashinasi ajratdik. Hozir uch nafar hunar o'rganish istagidagi yoshlarni o'qishga yuborish harakatidaman. Yana ikki nafar harbiy xizmatga borish istagida bo'lgan sharoiti og'ir oila farzandlarining harbiy xizmat pulini to'lab bermoqchimiz. Shuningdek, ikki nafar talabani shartnoma pulini to'lab berdik.

O'zbekistonda faoliyat olib boraётgan ikkita EKSP markazning biri bizning mahallada joylashgan. Shu markaz bizga ko'p imkoniyatlar bermoqda. Tadbirkorlikka, qishloq xo'jaligi, qurilish sohasiga qiziquvchi va shu sohada o'zining katta-kichik tadbirkorligiga ega yoshlar bu markazda tashkil qilinayotgan ko'rgazmalarda ishtirok etib, yirik korxonalar va firmalar bilan fikr almashmoqda. Ularning ishlash prinsipi bilan yaqindan tanishmoqda. Shu orqali o'z biznes rejalarini mukammal tarzda tuzmoqda. Hozir bir nechta ishsiz yoshlarimizga shu markazdan ish o'rnini ajratib berish harakatidamiz.

O'zim harbiy xizmatni o'taganim bois har bir ishni mukammal reja asosida qilishni yaxshi ko'raman. Haftalik, oylik va 90 kunlik reja tuzib ishlayman. Rejaga kiritgan ishlarimni o'z vaqtida tamomlayman. Keyinga surmaslikka qat'iy amal qilaman. Bu menga harbiy xizmatdan orttirilgan xarakter bo'lsa kerak. Rejamdagi hafta kunlarini nomlab olganman. Masalan:

Dushanba — yoshlar muammolari kuni;

Seshanba — kitobxonlik va zakovat kuni;

Chorshanba — tadbirkorlik kuni;

Payshanba — profilaktik tadbirlar kuni;

Juma — madaniy tadbirlar kuni

sifatida yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga intilyapman.

Yoshlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikning oldini olish maqsadida o'z mahallamda ko'cha sardorlari va harbiy xizmatni o'tab qaytgan yoshlardan "Qalqon" jamoalarini shakllantirdim. Ular bilan hamkorlikda mahallamizdagi yoshlar uchun har kuni kechki payt sport o'yinlari o'tkazaypmiz. Turnirlar tashkil etib, g'olib jamoalarni sovg'alar bilan rag'batlantiram. Sovg'alarni mahallamiz tadbirkorlari va hokimiyat tasarrufidagi "Yoshlar jamg'armasi" hisobidan ajrataypmiz.

Mening mahallam davlat xizmatini rivojlantirish agentligi reytingida "qizil" ro'yxatda turardi. Hozir uni "sariq", keyinchalik "yashil" ro'yxatga olib chiqish, yoshlar siyosatini eng quyi qatlamgacha, har bir yoshga yetkazishda bor imkoniyatimni ishga solyapman. Bunda bizga berilgan ishonch va imkoniyatlar yordam bermoqda.



BU – BEHRUZ

II-SINF O'QUV-CHISINING TAKLIFI UCHUN 45 MILLION SO'M AJRATILDI



Joriy yil 3-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayevning shaxsiy telegram kanalida oliy ta'lim muassasalari kesimida "Zakovat" intellektual o'yinini tashkil etish yuzasidan tashkil etilgan ovozi suhbatda qiziriqlik Behruzbek "Zakovat" intellektual o'yini koordinatori sifatida o'zining taklifini bildirgan edi. Taklif – tumanning 31 ta mahalla yoshlari o'rtasida "Zakovat" intellektual o'yinini tashkil etish edi.

Taklifni ma'qullagan Yoshlar ishlari agentligi rahbari 3 ta g'olib jamoaga 45 million so'm mablag' ajratilishini bildirgandi. Oradan hech

Nargiza MUSAYEVA,
Yoshlar ishlari agentligi Surxondaryo viloyati boshqarmasi Axborot va media bo'yicha mutaxassisi

qancha vaqt o'tmay Qiziriqlik tumanida "Zakovat" intellektual o'yini tashkil etildi va 3 ta g'olib jamoaga va'da qilingan pul mablag'lari taqdim etildi. Tashabbuskor Behruzbekka Alisher Sa'dullayev tomonidan noutbuk va 100 dona badiiy kitoblar jamlanmasi sovg'a qilindi.

— Men hozir Qiziriqlikdagi 6-maktabning II-sinfida o'qiyman, — deydi o'yin tashkilotchisi Behruzbek Usanov. — Bu o'yinni shunchalar intizor bo'lib kutdimki, yaqinlashgan sari hayajonimni bazo'r bosdim. Albatta, yoshlarga katta imkoniyatlar eshigi ochilayotgani bizga kuchli motivatsiya beradi. Kelajakda o'zim orzu qilgan kasbimni egallab, Vatanim uchun o'z mehnatimni ayamayman.



Yoshlar ishlari agentligi orqali davlat budjetidan "Zakovat" intellektual klubi" nodavlat notijorat tashkilotiga 2022-yilda 50 milliard so'm mablag' ajratilishi belgilangan. Loyihaning bosh maqsadi bunday o'yinlar tashkil qilinishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va zarur shart-sharoitlar yaratish, iqtidorli yoshlarning mantiqiy fikrlashini kuchaytirish, ularni saralashdan iborat.

YOSHLAR – BIZMIZ!



Oybek YULDOSHEV,
Yoshlar ishlari agentligi Andijon viloyati boshqarmasi boshlig'i

ularning muammolari ham bizniki

ANDIJON VILOYATIDA 887 TA MAHALLA MAVJUD. HAR BIR MAHALLADA OCHIQ TANLOV ASOSIDA JAMI 5 105 NAFAR NOMZOD ORASIDAN YOSHLAR BILAN ISHLASH KO'NIKMASIGA EGA, IQTIDORLI VA MALAKALI KADRLAR SARALANIB, YOSHLAR YETAKCHILARI FAOLIYATI YO'LGA QO'YILDI.

W Yoshlar yetakchilari barcha mahallalarda yoshlarni xatlovdan o'tkazdi. Har bir yoshning ijtimoiy holati, oilaviy sharoiti, salomatligi kabi yo'nalishlarda ma'lumotlari jamlanib, "Yoshlar balansi" shakllantirildi.

Xatlov jarayonida yetakchilar yoshlarning muammo va takliflarini o'rgandi. O'rganishlar asnosida yoshlarning qiziqishlariga qarab, viloyatimizda "Besh tashabbus mahallada" nomli 4 bosqichli tanlov va musobaqalar o'tkazib kelinmoqda. Jumladan, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida mahalla yoshlari o'rtasida "Zakovat" intellektual o'yini, mini futbol, voleybol musobaqalari, "street workout" bo'yicha yoshlar chempionati, kibersport musobaqalari tashkil etilib, 60 ming nafardan ziyod yosh qamrab olindi. Barcha tanlov va musobaqalar mahalla-sektor-tuman, shahar-viloyat bosqichlarida o'tkazib kelinmoqda. Loyihalarning bunday tartibda o'tkazilishi yoshlar qamrovini yanada kengaytirib, ularning xabardorligini oshirmoqda.

Shuningdek, soat 16:00dan 22:00ga qadar barcha umumta'lim maktablarining sport zal, faollar zali, kompyuter xonalari, kutubxonalar mahalla yoshlari uchun foydalanishga topshirildi. Maktablardagi 6 007 ta kompyuterga kibersport o'yinlari (CS:GO, CS 1.6, DOTA, WOW), 7 247 ta kompyuterga dasturlash tillari tizimlari (Python, C++, android, Java script va boshqalar) o'rnatildi.

Yoshlarning chet tillarni o'rganishga qiziqishini qo'llab-quvvatlash maqsadida 191 nafar yoshning 253 million 638 ming so'm miqdoridagi xalqaro imtihon xarajatlari kompensatsiya qilib berildi.

Dasturlash va IT sohasiga qiziquvchi yoshlar

"Bir million dasturchi" loyihasi doirasida bepul o'qitilib, 23 nafariga kredit asosida kompyuter jihozlari xarid qilishga ko'maklashildi va kredit foizlari Yoshlar ishlari agentligi tomonidan kompensatsiya qilib berilmoqda.

Mahallalarda yoshlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, yoshlarning siyosiy-huquqiy savodxonligini oshirish maqsadida ichki ishlar inspektorlari bilan hamkorlikda "Qalqon" guruhlarini shakllantirildi. Mahallalardagi muddatli harbiy xizmatni o'tab qaytgan 5667 nafar yosh profilaktika inspektorlari va yoshlar yetakchilari bilan birga "Tungji rey"lar o'tkazmoqda.

Mahallalarda milliy qadriyatlarini ulug'lash, yoshlarni keksalarga hurmat va ehtirom tuyg'ularida tarbiyalash maqsadida barcha mahallalarda "Bir nuroniyga o'n nafar yosh" loyihasi doirasida mahalladagi faxriy nuroniylarga 10 nafardan yoshlar birlashtirilib, ular ishtirokida doimiy ravishda "Uch avlod uchrashuvi", "Ma'naviyat darslari" tashkil etib kelinmoqda.

Bundan tashqari, joylarda yoshlar muammolarini o'rganish va ularga yechim topish maqsadida har hafta hududlarda sayyor holda "Sektor rahbari va yoshlar uchrashuvi" tashkil etilmoqda. 2022-yil boshidan viloyatda 229 ta shunday uchrashuv o'tkazilib, yoshlarga o'z muammolarini to'g'ridan-to'g'ri mutassaddi tashkilot rahbarlariga yetkazish imkonini yaratilmoqda.

"Yoshlar dardi – bizning dardimiz" degan tushunchani shior bilgan holda, har bir yoshning murojaati atroflicha o'rganilib, tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda ijroga yo'naltirilmoqda.

Yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida tuman, shahar hokimliklari qoshida tashkil etilgan "Yoshlar daftari" jamg'armasi mablag'lari hisobidan 418 nafar yoshni qo'llab-quvvatlash maqsadida jami 1 milliard 440,4 million so'm mablag' yo'naltirildi. Jumladan, 149 nafar yoshning kontrakt puli (449,5 million so'm), 85 nafar yoshga bir martalik moddiy yordam (91 million so'm), 1 nafar yoshga tadbirkorlik va kasb-hunariga o'qitish uchun (3 million so'm), 76 nafariga haydovchilikka o'qitish (113,9 million so'm), 6 nafariga asbob-uskunalar va mehnat qurollari xarid qilish (25 million so'm), 19 nafariga davolanish bilan bog'liq xarajatlar uchun (96,1 million so'm), 75 nafariga safarbarlik chaqiruv rezervi (SChR) xizmati uchun (431,7 million so'm) pul to'lab berildi.

Shuningdek, besh muhim tashabbus doirasidagi tadbirlarni moliyalashtirish, yoshlarning istidodini qo'llab-quvvatlash hamda boshqa turdagi yordamlar uchun 230,6 milliorti so'm ajratildi.

Umuman olganda, mahallalardagi yoshlar bilan ishlashning yangi tizimi Andijon viloyatidagi mahalla yoshlari uchun katta imkoniyatlar eshigini ochdi. Bu borada eng quyi tizimda – mahallalarda faoliyat yuritayotgan yoshlar yetakchilari bizga katta ko'mak va yordam bermoqda. Bizning asosiy maqsadimiz yoshlarning qiziqish va talablari doirasida tizimli ish tashkil etish, faol yoshlar safini kengaytirish va yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga yoshlarning daxldorligini oshirishdan iborat.



199

IMKONIYAT

**MUHTOJ QIZLAR,
BOQUVCHISI
YO'Q YOLG'IZ
AYOLLARNING
TA'LIM OLISHI
UCHUN
IMKONIYATLAR
BOR!**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'mirlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-5020-son qarori (2021-yil 5-mart) bilan, to'lov-kontrakt asosida davlat oliy ta'lim muassasasiga qabul qilingan, ota-onasi yoki ularning birlan ayirilgan muhtoj qizlar boquvchisi yo'q yolg'iz ayollarni Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari hamda davlat oliy ta'lim muassasalari hisobidan o'qitish tartibi joriy etilgan.

Bizdagi ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yilda mazkur imkoniyat sobab 1 431 nafar qizlarning to'lov-kontrakti hokimliklar hisobidan to'lab berilgan. Shuningdek, Moliyaviy barqaror oliy ta'lim muassasalari tomonidan esa 1 044 hafaar talabalarining (shundan 396 nafari xotin-qizlar) to'lov-kontrakt pullari budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan to'lab berilgan.

@alisher_sadullaev
telegram kanalidan olindi.



"ZAKOVAT" INTELLEKTUAL O'YINI



INTELLEKTUAL O'YIN BOSQICHLARI, O'TKAZILADIGAN MUDDATI VA JOYI

MAHALLA BOSQICHI
SEKTOR BOSQICHI
TUMAN (SHAHAR) BOSQICHI
HUDUDIY BOSQICHI
RESPUBLIKA BOSQICHI

1-20
APREL

MAHALLADAGI
ta'lim muassasalarida

MAS'UL VAZIRLIK
VA IDORALAR22-30
APREL

SEKTORDAGI
ta'lim muassasalarida



Intellektual o'yinda
700 MING dan ortiq yoshlar
qamrab olinishi kutilmoqda

1-10
MAY

TUMANDAGI
ta'lim muassasalarida



Intellektual o'yinda ishtirokchilar
@YOSHLARMUROJAATI BOT
orqali ro'yxatdan o'tadi

15-30
MAY

YOSHLAR
markazida



Xarajatlar hududiy
"YOSHLAR DAFTARI"
jamg'armasidan ajratiladigan
mablag'lar hisobidan
moliyalashtiriladi

1-20
IYUN

TOSHKENT
shahrida

1 MAHALLA BOSQICHI

1-20-APREL

- 1 Mahallada joylashgan ko'chalar kesimida intellektual o'yinda ishtirok etmoqchi bo'lganlarning arizalari telegramdagi **@yoshlarmurojaati_bot** yoki mahalla yetakchisi orqali qabul qilinadi
- 2 Intellektual o'yinni tashkil etishda mahalladagi yoshlar yetakchisiga bevosita yoshlar masalari bo'yicha maktab **direktori o'rinbosari ko'maklashadi**
- 3 Mahalla bosqichida ko'chalar kesimida saralangan jamoalar o'zaro bellashadi. Bu bosqichda g'olib bo'lgan jamoa intellektual o'yinning keyingi bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritadi

2

SEKTOR BOSQICHI

22-30-APREL

- 1 Mahalla bosqichida g'olib bo'lgan jamoalar sektor bosqichida o'zaro bellashadi
- 2 Intellektual o'yinda 1-2-3-o'rinni qo'lga kiritgan jamoalar **keyingi bosqichga yo'llanmani qo'lga kiritadi**
- 3 Istisno tariqasida sektorda **4 tadan kam** MFY mavjud bo'lsa, bunda jamoalar tuman(shahar) bosqichida ishtirok etishi mumkin
- 4 Intellektual o'yinda **7 nafardan iborat** (6 nafar asosiy, 1 nafar zahira tarkibidagi) ishtirokchilar qatnashishi mumkin

5

1-20-IYUN
RESPUBLIKA BOSQICHI

- 1 Hududiy bosqichda g'olib bo'lgan jamoalar **yakuniy bosqichda o'zaro bellashadi**
- 2 Tanlov Toshkent shahrida o'tkaziladi
- 3 Intellektual o'yinda 1-2-3-o'rinni qo'lga kiritgan g'olib jamoalar respublika bosqichi g'olibi sifatida taqdirlanadi

3

TUMAN(SHAHAR) BOSQICHI

1-10-MAY


- 1 Tuman(shahar) bosqichida sektor bosqichida g'olib bo'lgan jamoalar o'zaro bellashadilar
- 2 Intellektual o'yinda 1-o'rinni qo'lga kiritgan jamoa **keyingi bosqichga yo'llanmani qo'lga kiritadi**
- 3 Intellektual o'yinda **7 nafardan iborat** (6 nafar asosiy, 1 nafar zahira tarkibidagi) ishtirokchilar qatnashishi mumkin

4

HUDUDIY BOSQICHI

15-30-MAY

- 1 Hududiy bosqichda tuman(shahar) bosqichida g'olib bo'lgan jamoalar o'zaro bellashadilar
- 2 Intellektual o'yinda 1-o'rinni qo'lga kiritgan jamoa **keyingi bosqichga yo'llanmani qo'lga kiritadi**
- 3 Intellektual o'yinda **7 nafardan iborat** (6 nafar asosiy, 1 nafar zahira tarkibidagi) ishtirokchilar qatnashishi mumkin



TEST

SINOVLARI
BO'YICHA IKKI XIL
SSENARIY TAYYOR-
LANMOQDA

2022-yilda ham OTMga kirish uchun test sinovlarini o'tkazish bo'yicha ikki xil ssenariy tayyorlanmoqda. Bu haqda kecha Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida bo'lib o'tgan matbuot anjumanida DTM direktori Majit Karimov ma'lum qildi.

Unga ko'ra, ayni paytda DTM testlarni o'tkazish bo'yicha ikki xil ssenariy ustida ish olib bormoqda:

1. Test sinovlarini an'anaviy shaklda 94 ta katta sig'imli binolarda o'tkazish;
 2. Mabodo karantin qoidalari kuchaytirilsa, test sinovlarini 2020 va 2021-yildagi kabi 53 ta ochiq maydonlar (stacion va xiyobonlar)da o'tkazish.
- Joriy yilda 1 million nafardan ko'proq abituriyent OTMlarga kirish uchun hujjat topshirishi kutilmoqda.

BILIM UCHUN 100 MILLION

@bilimtestbotda ro'yxatdan o'tib, bilim uchun 100 million yutib oling!

"Bilim uchun 100 million" ommabop loyiha bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lgan barcha — maktab o'quvchilari, professional ta'lim muassasalari o'quvchilari, abituriyentlar, talabalar va kattalar ham ishtirok etishlari mumkin.

Olimpiada ikki bosqichda:
birinchi bosqich **@bilimtestbot** Telegram botida onlayn

(1-apreldan, 20-avgustgacha);
ikkinchi bosqich oflayn shaklda
(20-avgustdan keyin, Mustaqil-
lik bayrami arafasida) Toshkent
shahrida o'tkaziladi.


Eslatib o'tamiz, loyihaning faqatgina **@bilimtestbot** Telegram boti mavjud. Bu nomga o'xshash nomdagi har qanday kanal, guruh va botlarning bizning olimpiadaga aloqasi yo'q hamda ular feyk! Ayni vaqtda **@bilimtestbotda** ro'yxatdan o'tsangiz bo'ladi.

@alisher_sadullaev

Azim AXTAMOV

“QIZIL KITOB” “SEMIRIB” KETYAPTI

YOXUD TALABALAR QACHON
OXIRGI MARTA HAYVONOT
BOG'IGA BORGAN?



Hayvonlar – tabiatning bir bo'lagi. Ularni asrash, himoyalash har bir insonning burchidir. Odamzot mavjudotlarga qanchalik mehr bilan g'amxo'rlik qilsa, ona tabiat ham uni siylaydi. Biroq bugungi yosh avlod hayvonlarga bemehr bo'lib ulg'ayayotgandek. Qishloq va ovullarda noyob turdagi hayvonlarni ovlash, tog' va adirlarda kamyob qushlarni o'qqa tutish ko'ngilxushlik bo'lib qolganek, go'yo. Balki o'quvchilar zoologiya fanini yaxshi o'rganmagani, “Qizil kitob”ga kirgan yoki endi kiradigan hayvonlar haqida ma'lumotga ega bo'lmagani uchun shunday xatolikka qo'l urayotgandir. Axir, dala-dashtda hayvonlarni noqonuniy ovlash, asosan yoshlar ishtirokida bo'lyapti-ku.



HAYVONLAR YO'QOLISHI – EKOLOGIYA TANAZZULI

Hayvonlar tabiatda muvozanatni saqlashda, turli xil urug'larni tarqatishda, oziq-ovqat zanjirining paydo bo'lishida, tuproqni unumdor qilishda, landshaftlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Afsuski, atrof-muhitning ifloslanishi hayvonlarga ham ta'sir o'tkazmasdan qo'ymaydi. Natijada iflos havo va suvdan oziqlanish tufayli hayvonlar qirila boshlaydi. Ekologiyadagi kimyoviy va radioaktiv moddalarning hayvonlar tanasiga teri orqali kirishi ularning o'limiga sabab bo'ladi.

Insonlar jonivorlarga zarar yetkazish bo'yicha birinchi o'rinda turadi. O'rmonlarni kesish, botqoqlarni quritish, hayvonlarni ovlash shular jumlasidan. Shu bilan ular o'ziga ham choh qaziydi. Ekotizimlar vayron qilinganda mahalliy aholi yangi turar joy axtarishga, yashash joyini o'zgartirishga majbur bo'ladi. Bu holat populyatsiyaning kamayishiga olib keladi. Chunki ko'pchilik yangi sharoitga moslasha olmaydi. Gapning indallosi, oddiy xalq hayvonlarning yo'qolib borishi insoniyat va olam uchun juda katta xavf ekanini haligacha anglagan yo'q!

RAQAMLAR NIMA DEYDI?

Ma'lumotlarga qaraganda, dunyoda har 20 daqiqada bir fauna (muayyan hududda yoki kvatoriyada yashovchi hayvon) turi yo'q bo'lib ketarkan. Insonlar Yer yuzida hayvonlarga qiron kelsa, ularni nima kutishini tasavvur ham qila olmaydi. Ayniqsa, bugungi kunda O'zbekiston hududida kamayib borayotgan Turkiston silovsini, qor qoploni, qum efasi (charxilon), Menzbur sug'uri, oq quyruq, Buxoro kiyigi xongul va boshqa turdagi nodir hayvonlar qo'riqxonalarda va hayvonot bog'ida ehtiyotlab saqlanmoqda.

Ularning noyob va bebaho xazina ekanini ko'pchilik bilmaydi. Bunga misol qilib, Samarqanddagi Zarafshon milliy tabiat bog'ida Buxoro xongulining otib o'ldirilishi, Qashqadaryoda “Qizil kitob”ga kiritilgan qo'ng'ir ayiqning do'pposlab halok qilinishi, Muzrabodda chupakabra deb taxmin qilinayotgan noma'lum va noyob hayvonning yoqib yuborilishini eslab o'tish joiz.

Bundan tashqari, o'lkamizda hayvonlarga nisbatan yana qanchadan-qancha vaxshiyliklar sodir etilayotgani ijtimoiy tarmoqlarda tarqalib turibdi. Xo'sh, nega insonlar hayvonlarga beshafqatlik qilyapti? Ular hayvonot bog'iga borib, kamyob jonzotlar haqida ma'lumotga ega bo'lmaganmi? Bu savollarga javob izlab, talabalar o'rtasida kichik so'rovnoma o'tkazdik. Unda qatnashgan 56 talabadan 25 nafari hayvonot bog'iga bolaligida borganini aytdi. 15 nafari umuman bormaganini, 4 nafari hayvonot bog'i uni umuman qiziqtirmasligini ma'lum qildi. Faqatgina 12 nafar talaba ijobiy javob berib, bog'ga tez-tez borib turishini bildirdi.

O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasida esa Toshkent hayvonot bog'iga yillik kelib-ketuvchilar to'g'risida hech qanday ma'lumot yo'q.

”

Avaz YO'LDOSHEV,

Toshkent hayvonot bog'i ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari:

— Hayvonot bog'iga Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn instituti, O'zbekiston Milliy universiteti talabalari ko'proq kelib turadi. Boshqa institutlardan kam kelishadi. Talabalar bog'da hayvonlarning harakati va atrof-muhitni jonli tarzda tasvirlab, suratlar chizadi. Jonivorlar oldiga borib, nimalarnidir gapirib erkalatadi.

Hayvonot bog'iga kelish yoshlarning qalbidagi mehr-muhabbat va insoniylik tuyg'ularini jo'shinqilantiradi. Umuman olganda, bu yerga barcha viloyatlardan yosh-u qari tashrif buyuradi. Hozirgi kunda bu maskanda 330 turdagi hayvon parvarishlanayapti. 8 mingdan ortiq jonivor ko'rgazmaga qo'yilgan. Shundan 33 turdagi hayvon O'zbekiston, 65 turi esa Jahon “Qizil kitob”ga kiritilgan. Bu hayvonot bog'idagi 30 foizdan ziyod jonzot nodir hayvonlar ekanini anglatadi.

Yaqinda qafasga tushib ketgan bolani hidlab, yana orqasiga qaytgan ayiq ham noyob tur hisoblanadi. Mazkur tur Kavkaz tog'laridan olib kelingan qo'ng'ir ayiq bo'lib, odamlar uni Zuzu deb ataydi. Zuzu tug'ilganidan beri odamlar qo'lidan ovqatlanishi, hayvonot bog'ida tarbiyalanishi sabab kimgadir hamla qilmaydi. Shuning uchun u insonlarga mehribon. Zuzu tomoshabinlarga turli o'yinlar ko'rsatib, ularning yoniga borishdan qo'rqmaydi. Ayiq insonlarni ham o'zidek muloyim deb o'ylaydi.

INSONLAR JONIVORLARGA ZARAR
YETKAZISH BO'YICHA BIRINCHI
O'RINDA TURADI. O'RMONLARNI KESISH,
BOTQOQLARNI QURITISH, HAYVONLARNI
OVLASH SHULAR JUMLASIDAN.



**Maftuna
BEKMURODOVA,**
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabasi:

— Hayvonot bog'i haqida gapirishda, televizorda yoki kitob varaqlarida tasvirlangan yovvoyi hayvonlar ko'z o'ngimda gavdalanardi. Biror marta ham hayvonot bog'iga bormagandim. Bu baxt azim Toshkentga kelganimda nasib qildi. Chunki yurtimizda hayvonot bog'i degan nomga arzigulik maskan faqat bitta. Qishloqliklar-ku uy hayvoni-yu parrandalarni ko'rib, ularni his etib yashaydi. Ammo shaharlik bolalar bu baxtdan benasib. Hududlarda ham bolalar ko'rib ko'zi qunaydigan hayvonot bog'lari tashkillashtirila edi.



**Guljahon
SANJARBEKOVA,**
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti talabasi:

— Men yurtimizdagi hayvonot bog'larining ishlash tizimiga qarshiman. Chunki u yerda hayvonlar qafas va panjaralar ortida saqlanadi, ularning erkinligi cheklanadi. Ba'zi mamlakatlarda esa ochiq, ya'ni to'siq va qafasiz hayvonot bog'i mavjud. U yerda jonzotlar nafaqat erkin harakatlanadi, balki ularga alohida e'tibor qaratiladi.

Men oxirgi marta hayvonot bog'iga borganimda 2020-yil boshi edi. Hayvonlar oriqlab ketgan, qafaslar sanitariya qoidasiga javob bermaydigan ahvolda edi. Bechora hayvonlarga juda achingandim o'shanda. Shu sabab yana qayta xunuk voqealarning guvohi bo'lmaslik uchun hayvonot bog'iga bormay qo'ygannman. O'ylaymanki, O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi bu masalani qaytadan ko'rib chiqadi. Axir, hayvonot bog'ida-gi hayvonlar noyob mavjudot hisoblanadi.

YUKSALISH

LEADERS ACADEMY

YUKSALISH Liderlar Akademiyasi 10-20 yosh oralig'idagi yoshlarga 26 hafta davomida 24 ta modul va 52 ta shaxsiy rivojlanish yo'nalishlari bo'yicha nazariy va 12 ta amaliy bilim va ko'nikmalarni tizimli berishga va yoshlarning qobiliyatlari hamda qiziqishlarini aniqlashga, shuningdek, to'g'ri yo'nalishda ketishiga yordam beruvchi loyiha.

Yuksalish Liderlar Akademiyasining missiyasi - bolalarga har tomonlama bilim va ko'nikmalarni nafaqat nazariy, balki amaliy tarzda o'rgatib, millat yoshlarini haqiqiy lider darajasida tarbiyalash. Butun dunyoni buyuk xalq atrofida birlashtirish.

Yuksalish Liderlar Akademiyasining maqsadi - har bir bolaning qobiliyatlariga individual yondashgan holda ularga urg'u berib maksimal darajada shakllantirish va o'zlarining potentsiallari kuchli bo'lgan yo'nalishda tarbiyalash.

Yuksalish Liderlar Akademiyasi auditoriyasi - o'sish davridagi, maqsadi va yo'nalishlarini aniqlab olish istagidagi 10-20 yosh oralig'idagi o'g'il-qizlar.

☎ 71 200 01 90

📱📺📺 @yuksalish_leaders_academy

YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:
Hamza ABDULLAYEV

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:
Iqbol PARDAYEVA

Musahhihlar:
Shahribonu RAHMATOVA,
Qirmizoy HAKIMOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida teriladi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (71) 233-22-16, (71) 238-79-95.

"Sharq" nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshqaruvchisi A-3 formatda chop etildi. Hajmi - 2 bosma tobaq. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indeks: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-355, Adadi - 10600. Bosishga topshirish vaqti - 21.00. Topshirildi - 20.00.

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



1 2 3 4 5 6